

POPULATION OF THE FERGANA REGION AT THE END OF THE XIX CENTURY (ACCORDING TO ANALYSIS OF THE FIRST CENSUS OF 1897)

Y.U. Xolxujayeva

Assistant of Kattakurgan branch of Samarkand State University

Annotation: As a result of the colonial policy pursued by the Russian Empire after the conquest of a large part of Central Asia, the census in Turkestan, including in the Fergana region, was carried out gradually.

Keywords: Fergana population, political, economic, cultural, trade, family economy.

XIX ASR OXIRIDA FARG'ONA VILOYATI AHOLISI (1897 YILGI BIRINCHI AHOLINI RO'YXATGA OLISH MA'LUMOTLARI TAHLILIGA KO'RA)

Y.U. Xolxujayeva

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Annotatsiya: Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xududining kattagina qismini zabt etgach, olib borilgan mustamlaka siyosat natijasida Turkiston o'lkasida shu jumladan Farg'ona viloyatidagi aholini ro'yxatga olish jarayonlari bosqichma bosqich amalga oshirildi.

Kalit so'zlari: Farg'ona aholisi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo, oilaviy xo'jalik.

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyoda uzoq davom etgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar mintaqa aholisining xilma-xil tarkibi shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xududining kattagina qismini zabt etgach, olib borilgan mustamlaka siyosat natijasida Turkiston o'lkasida sun'iy ko'pmillatlilikni shakllanishi yuz beradi. Xususan, bosqichlar bilan amalga oshirilgan ko'chirish siyosati, shuningdek, migratsiya va boshqa omillar o'lka aholisi tarkibining o'zgarishiga sabab bo'lgan edi. 1897 yil Turkiston o'lkasida o'tkazilgan Birinchi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari tahlili asosida, bu holat ayniqsa, aholi zich joylashgan va turli etnik tarkibga ega bo'lgan Farg'ona vohasida yorqin kuzatilganligi ma'lum bo'ladi. Ma'lumki, Farg'ona viloyati 1876 yilda Rossiya imperiyasiga qo'shib olingan Qo'qon xonligiga qarashli xududda tashkil etilgan edi. Viloyat bu davrda shimolda Sirdaryo viloyati, shimoli-sharqda Yettisuv, sharqda Xitoy yerlari (Qo'shqar), janubda afg'on yerlari va g'arb tomondan amirlikning Vaxan, Shug'on, Ro'shon, Darvoz va Qora tegin bekliklari hamda Samarqand viloyati bilan chegaradosh bo'lgan. 1897 yil aholini umumiy ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, viloyat aholisining umumiy soni 1 mln. 572.214 kishidan iborat bo'lib, shulardan 852.919 nafari erkaklar (54,2 %) va 719.295 nafari (45,8 %) ayollardan iborat bo'lgan. Ro'yxat ma'lumotlariga ko'ra, shu yilda o'z yashash joyida bo'lmaganlar 813 kishini va vaqtincha bo'lib turganlar 1784 tani tashkil etgan. Farg'ona viloyatida aholining o'rtacha zichligi har verstga (12,98 kishini tashkil etgan. Shahar aholisi viloyat aholisining 18,1 % ini tashkil etib, ular tub joyli aholi orasida savdo, ishlab chiqarish munosabatlarini olib borishiga bilan yuqori ko'rsatkichga ega edi. Biroq bu davrda viloyat umumiy aholisining 21 foizi ishlab chiqarish va savdo orqasidan tirikchilik qilgani ma'lum bo'ladi. 1897 yilda xo'jalik toifalari tahlil etilganda, xo'jaliklarning katta qismini ya'ni, 98 foizini oilaviy xo'jaliklar, 1,9 foizini yakka va 0,1 foizini oilaviy bo'lmagan xo'jaliklar tashkil etganligini ko'rsatadi. Bulardan tashqari, viloyatda 216 ta yoki xo'jaliklarning 0,07 % ni yuridik xo'jaliklar tashkil etgan, ular asosan, kazarmalar, monastirlar va boshqa muassasalarga qarashli bo'lgan.

1897 yilgi ro'yxat ma'lumotlari viloyat aholisining jinsi, yoshi va diniy e'tiqodiga ham aniqlik kiritadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, aholi tarkibida erkaklarning ulushi ayollarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi, lekin yosh bolalar orasida qizlarning ulushi yuqori ko'rsatkichni beradi. Viloyat aholisining 98,68 % erkak

va 99,45 % ayollari islom diniga e'tiqod qilgan. Shundan keyingi ko'rsatkichda, pravoslavlar – 0,86 % erkak va 0,37 % ayol, arman-grigoryanlar – 0,02 % erkak, rim-katoliklar – 0,18 % erkak va 0,01 % ayollar, lyuteranlar – 0,04 % erkak va 0,01 % ayollar va yahudiylar 0,19 % erkak va 0,16 % ayollarni tashkil etgan. Boshqa e'tiqod vakillarining ulushi past, ya'ni 0,01 % dan ziyod bo'lgan. Shuni ta'kidlash lozimki, 1897 yilgi ma'lumotlar aholini mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullangan mashg'uloti taqsimotini faqat umumiy tarzda namoyon etadi. Ma'lumki, Farg'ona vohasining tub joy aholisi yashash tarziga ko'ra, ikki katta guruhga: vodiya yashagan o'troq va tog' va tog' oldi hududlarda yashovchi ko'chmanchi, yarim ko'chmanchilarga bo'lingan edi. 1897 yilda aholi mashg'ulotlariga e'tibor berilar ekan, ularning aksariyati ya'ni, 70,5 % dehqonchilik bilan shug'ullanganligi aniq bo'ladi. Shundan keyingi o'rinda, ishlab chiqarish bilan 15,1 %, ishlab chiqarishga qaratilmagan soha bilan 6,7 %, savdo bilan 6,0 % va boshqa sohalar bilan 1,7 % aholi mashg'ul bo'lgan.¹ Shuningdek, mashg'ulotlar bilan band bo'lganlar asosan, erkaklar bo'lib, qayta ishlash sohalarida mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullangan ayollarning ulushi foiz hisobida past edi. Ayollarning bu davrda asosan uy yumushlari bilan bandligi saqlanib qolgan. Farg'onaning yerli aholisi maishiy munosabatlarda ikkita katta guruhga bo'linadi: vodiya yashaydigan o'troq va asosan tog' va tog'oldi hududlarda yashovchi ko'chmanchilarga. Ular bu yerlarda chorvachilikdan tashqari ekin maydonlariga ham ega. Ularni yarimko'chmanchilar deb nomlasak balki to'g'riroq bo'lar edi. Chunki qishda ular ekin maydonlari atrofidagi ovullarda bo'ladilar, bahor kelishi bilan ovuldagi ko'chmanchilar mol-hollari bilan har yili yani tog' yayloviga ko'chib chiqadilar.²

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 1897 yil Turkiston o'lkasida o'tkazilgan Birinchi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarini tahlil qilish, o'lka aholisining ko'pgina jihatlarini ifoda etadi. Birinchidan, ro'yxat ma'lumotlari ilgari, ya'ni xonliklar davrida noma'lum bo'lgan aholi etnik tarkibi, e'tiqodi va shug'ullangan mashg'ulot turlari kabi masalalarga son va foiz jihatdan aniqlik kiritadi. Boshqa tomondan, Farg'ona viloyati misolida, o'lkaga kirib kelgan turli etnoslar, din vakillari va ularning mashg'ulotlari, shuningdek, tub joy aholi bilan xo'jalik, ishlab chiqarish, savdo sohalarida tajriba almashinuv munosabatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manba:

1. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Ферганская область. 1904 г. С. 12-17
2. В.Наливкин и М.Наливкина “Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы” Казань 1886-г. С. 20-23.

¹ Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Ферганская область. 1904 г. С. 12-17.

² В.Наливкин и М.Наливкина “Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы”. С.20-23.